



UDK:372.891

Nargiza TO'RAYEVA,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: turayevan880@gmail.com

O'zMU dotsenti U.Sodiqov taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR PROMOTING NATIONAL VALUES AND CULTURE IN STUDENTS THROUGH FOLK NARRATIVES

Annotation

This article explores the importance of Uzbek folk tales in the educational system and their role in educating the younger generation. How narratives are used as an effective methodological tool in the study of national values and culture has been considered. Folk tales, with their educational and spiritual significance, help to form positive qualities in the minds of students, such as the values of our country, respect for Labor, moral responsibility and Human Relations. Also, the importance of teachers' methodological approaches to the development of national values in students is emphasized. With the help of narratives, teachers will have the opportunity to expand the thinking and understanding abilities of students, acquaint them with national and universal values.

Key words: Folk narratives, national values, culture, upbringing, pedagogy, educational process, educational methodology, students, younger generation, methodological approach of teachers, spirituality, self-awareness, ethical education, Uzbek folk literature, interactive education.

МЕТОДИКА ПРОПАГАНДЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ НАРОДНЫЕ СКАЗАНИЯ

Аннотация

В данной статье исследуется значение узбекских народных сказаний в системе образования и их роль в воспитании подрастающего поколения. Рассматривается, как повествование используется как эффективный методический инструмент при изучении национальных ценностей и культуры. Народные сказания, своим воспитательным и духовным значением способствуют формированию в сознании учащихся таких положительных качеств, как ценности нашей страны, уважение к труду, моральная ответственность и человеческие отношения. Также подчеркивается важность методических подходов педагогов в развитии национальных ценностей у учащихся. С помощью повествований учителя получают возможность расширить навыки мышления и понимания учащихся, приобщить их к национальным и общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова: Народные сказания, национальные ценности, культура, воспитание, педагогика, образовательный процесс, методика обучения, методический подход учащихся, подрастающего поколения, учителей, духовность, самосознание, этическое воспитание, узбекская народная литература, интерактивное образование.

XALQ RIVOYATLARI ORQALI TALABALARDA MILLIY QADRIYATLARNI VA MADANIYATNI TARG'IB QILISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek xalq rivoyatlarining ta'lim tizimidagi ahamiyati va ularning yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni o'rganilgan. Milliy qadriyatlar va madaniyatni o'rganishda rivoyatlarning samarali metodik vosita sifatida qanday foydalanilishi ko'rib chiqilgan. Xalq rivoyatlari, o'zining tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati bilan talabalar ongida yurtimizning qadriyatlari, mehnatga bo'lgan hurmat, ahloqiy mas'uliyat va insoniy munosabatlar kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarda milliy qadriyatlarni rivojlantirishda o'qituvchilarning metodik yondashuvlarining ahamiyati ta'kidlangan. O'qituvchilar rivoyatlar yordamida talabalarning fikrlash va tushunish qobiliyatlarini kengaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: Xalq rivoyatlari, milliy qadriyatlar, madaniyat, tarbiya, pedagogika, o'quv jarayoni, ta'lim metodikasi, talabalar, yosh avlod, o'qituvchilarning metodik yondashuvi, ma'naviyat, o'zlikni anglash, etik tarbiya, o'zbek xalq adabiyoti, interaktiv ta'lim.

Kirish. Xalq rivoyatlari — xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy meyorlari va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan eng qadimgi adabiy shakllardan biridir. Ular milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida nafaqat xalqning dunyoqarashi va falsafasini, balki uning ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, xalq rivoyatlari talabalarga milliy qadriyatlarni va madaniyatni o'rganish, tushunish va ularga hurmat bilan yondashishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Xalq rivoyatlari yordamida talabalarda mehnatsevarlik, odob-axloq, vatanparvarlik, hurmat va mehr-oqibat kabi asosiy axloqiy qadriyatlar shakllanadi.

Bu maqolada xalq rivoyatlari orqali talabalarda milliy qadriyatlarni va madaniyatni targ'ib qilishning metodikasi, uning ta'limda qo'llanilishi, shuningdek, o'quv jarayonida samarali natijalarga erishish uchun qanday usullarni qo'llash kerakligi tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalq rivoyatlari va ularning ta'limdagi o'rni haqida turli xil ilmiy adabiyotlarda

ko'plab izlanishlar mavjud. Bu soha pedagogika, psixologiya, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik kabi bir nechta ilmiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Xalq rivoyatlarining pedagogik ahamiyati haqida ko'plab ilmiy izlanishlar mavjud. Jumladan, B.S. Galievning "Xalq rivoyatlari va ularning bolalar tarbiyasidagi roli" nomli asarida xalq rivoyatlarining axloqiy va estetik tarbiya berishdagi o'rni tahlil qilingan. Xalq rivoyatlarining pedagogik rolini o'rganishda N.A. Kablitskayaning "Pedagogik jihatdan xalq rivoyatlarining o'rni" asari ham muhimdir. Muallif xalq rivoyatlarining nafaqat axloqiy saboqlarni, balki talabalarda fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishda ham ta'sirchan ekanligini ta'kidlaydi. Xalq rivoyatlari yordamida milliy qadriyatlarni o'rgatishning metodikasi haqida Sh.M. Nizamovanning "Xalq rivoyatlari va milliy qadriyatlarni o'rgatish" nomli ilmiy tadqiqotida batafsil ma'lumot berilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Xalq rivoyatlari asrlar davomida avlodlardan-avlodga o'tilgan. Xalqning hayotiy tajribalarini, axloqiy meyorlarini, ijtimoiy muammolarni hal qilish

usullarini va qadriyatlarini aks ettirgan adabiy shakllardir. Rivoyatlar xalqning dunyoqarashini, axloqiy fazilatlarini va zamonaviy hayotga yondashuvini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ular tilning rivojlanishida, xalq madaniyatining shakllanishida, ijtimoiy va mehnat faoliyatida katta rol o'ynagan.

Rivoyatlar orqali quyidagi milliy qadriyatlar talabalarga yetkazilishi mumkin:

odamiylik va mehr-oqibat – rivoyatlar odamlar o'rtasida do'stlik, yordam, o'zaro hurmat va mehr-oqibatni tarbiyalaydi.

vatanparvarlik – Vatanni sevis, uni asrab-avaylash va milliy an'analarni hurmat qilishni o'rgatadi.

- mehnatsevarlik – mehnatning qadri, uni halol va samarali bajarish talabalarga rivoyatlar orqali yetkaziladi.

- o'zlikni anglash – o'z millatini sevis, uning tarixi va madaniyatini o'rganish orqali o'zligingizni anglashni o'rgatadi.

Shuningdek, xalq rivoyatlari talabalarda boshqalar bilan hamkorlik qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish va muammolarga ijodiy echimlar topish kabi qobiliyatlarni ham shakllantiradi.

Xalq rivoyatlari orqali milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda turli pedagogik metodlar va yondashuvlar mavjud. Bu metodlar talabalarga milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni anglash va shu qadriyatlarni hayotda qo'llashni o'rgatish uchun samarali vositalar bo'ladi. Quyida, xalq rivoyatlari orqali talabalarda milliy qadriyatlarini targ'ib qilishning asosiy metodlari keltirilgan:

1. Rivoyatlarni tahlil qilish va muhokama qilish. Xalq rivoyatlari o'qituvchining tahliliy fikrlashni rivojlantirish va talabalar bilan interaktiv muloqot o'rnatish uchun ajoyib vositadir. Talabalar rivoyatlar orqali axloqiy saboqlarni o'rganadilar va bu saboqlarni o'zlarining hayotlariga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- rivoyatlarni o'qishdan so'ng talabalar bilan guruhlar bo'yicha muhokama tashkil etish.

- talabalar rivoyatlar asosida axloqiy meyorlarni tahlil qilib, ularni zamonaviy hayotga qanday tatbiq etish imkonligini muhokama qilishlari kerak.

- rivoyatlar asosida savollar tuzish va talabalarga bu savollarga javob berish imkoniyatini yaratish. Masalan, 1. Rivoyatda ko'rsatilgan vatanparvarlik va mehr-oqibat qadriyatlarini qanday tushunasiz? 2. Bu qadriyatlarni bizning jamiyatimizda qanday rivojlantirish mumkin? kabi savollar.

2. Ijodiy ishlarga yo'naltirish. Xalq rivoyatlari nafaqat axloqiy fazilatlarini o'rgatadi, balki talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Rivoyatlarni ijodiy tarzda talabalarga taqdim etish, ularga yangi g'oyalar va yondashuvlarni kiritish imkonini beradi. Ijodiy ishlarda talaba o'z fikrlarini erkin ifodalaydi, shuningdek, o'ziga xos yondashuvlarni shakllantiradi. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- talabalar rivoyatlar asosida turli ijodiy ishlarni yaratishlari mumkin, masalan, insho yozish, hikoya yozish, rivoyatlarni drammatizatsiya qilish;

- rivoyatlar asosida o'quvchilar sahnalashtirilgan qisqa spektakllar yoki teatr ko'rinishlarini tashkil etishlari mumkin;

- o'quvchilarni ijodiy ravishda xalqqa tegishli yangi rivoyatlar yoki hikoyalar yaratishga undash.

3. Milliy qadriyatlarni tarixiy va madaniy kontekstdan o'rganish. Xalq rivoyatlari nafaqat axloqiy, balki madaniy va tarixiy qadriyatlarni ham o'rgatadi. Rivoyatlar orqali talabalar millatning tarixiy o'tmishiga, madaniy an'analarga chuqurroq nazar soladilar va shu tariqa o'z milliy merosini tushunadilar. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- rivoyatlar asosida millatning tarixini, urf-odatlarini, madaniyatini o'rganish;

- rivoyatlar yordamida talabalar o'z millatining o'tmishdagi hayoti, uning qadriyatlari va an'analari haqida

chuqurroq ma'lumotga ega bo'ladilar. Bunday yondashuv talabalarda milliy va madaniy anglashni shakllantiradi;

- talabalar rivoyatlar asosida tarixiy va madaniy an'analarga haqida tadqiqotlar o'tkazishlari mumkin.

4. Xalq rivoyatlari san'at bilan uyg'unlashtirish. San'at, musiqa, raqslar va she'rlar orqali xalq rivoyatlarini talabalarga taqdim etish ularning estetik va hissiy rivojlanishiga yordam beradi. San'at va xalq rivoyatlarini birlashtirish orqali talabalar o'z madaniyatini chuqurroq tushunadilar. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- xalq rivoyatlarini musiqiy va teatr ko'rinishlarida namoyish etish;

- rivoyatlar asosida raqslar yoki san'at asarlarini yaratish;

- talabalar tomonidan milliy san'at shakllarini, masalan, xalq musiqa asboblari bilan foydalanishni o'rgatish.

5. Pedagogning roli va metodik yondashuvlar. Xalq rivoyatlari asosida ta'lim berishda o'qituvchining roli muhimdir. O'qituvchi talabalarni rivoyatlar orqali milliy qadriyatlarni o'rganishga undashi, ularni zamonaviy hayotga tatbiq etishda yordam beradi. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- o'qituvchi darslarni rivoyatlar asosida qurib, talabalarga axloqiy saboqlarni tushuntiradi;

- o'qituvchi talabalar bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularning rivoyatlar haqidagi fikrlarini tinglaydi va ular bilan interaktiv muloqotga kirishadi;

- o'qituvchi talabalarga rivoyatlarni o'rganish va ulardan amaliy maqsadlar uchun foydalanish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Tahlil va natijalar. Xalq rivoyatlari, asosan, xalqning qadimiy hayoti, urf-odatlarini, ahloqiy meyorlari va qadriyatlarini o'zida aks ettirgan adabiy mahsulotlardir. Ular, nafaqat tarixiy ma'lumotlar, balki insoniyatga oid umumiy ahloqiy tamoyillarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Rivoyatlar orqali talabalar milliy ruhni, o'ziga xoslikni, xushmuomalalikni, mehnatni qadrlashni o'rganishlari mumkin.

2. Xalq rivoyatlari, talabalarga nafaqat o'z yurtining madaniyatini chuqurroq anglash imkonini beradi, balki umumiy insoniyat qadriyatlarini ham yoritishga yordam beradi.

3. Dars jarayonida rivoyatlarni ishlatish nafaqat talabalarining e'tiborini tortadi, balki ularning badiiy va estetik tasavvurlarini ham rivojlantiradi. Bunda, o'qituvchilarning kreativ yondashuvi, o'quv jarayoniga rivoyatlarni qo'shish orqali, milliy madaniyatni o'rgatishda yanada samarali bo'lishi mumkin.

4. Xalq rivoyatlari orqali milliy qadriyatlarni talabalarga etkazish metodikasi o'zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Bu yondashuv talabalarni nafaqat milliy an'analarga hurmat bilan qarashga, balki dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Rivoyatlar, o'z navbatida, talabalarining ahloqiy va madaniy shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, bu metodikaning ta'lim tizimida keng qo'llanilishi zarur. Bunda o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklanadi, chunki ular bu jarayonni qiziqarli, mazmunli va o'quvchilarni o'ylashga undaydigan tarzda olib borishlari kerak. Umuman olganda, xalq rivoyatlari orqali milliy qadriyatlarni targ'ib qilish nafaqat talabalarining ma'naviyati va dunyoqarashini shakllantiradi, balki jamiyatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xalq rivoyatlari talabalarda milliy qadriyatlarni va madaniyatni targ'ib qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular nafaqat axloqiy meyorlarni, balki milliy urf-odatlar, madaniyat va tarixiy qadriyatlarni o'rganishga imkon yaratadi. O'qituvchilar xalq rivoyatlarini darslarda ijodiy va tahliliy yondashuvlar bilan o'rgatib, talabalarda chuqur axloqiy va madaniy ongini rivojlantiradilar. Bu metodika talabalarga nafaqat o'z millatini sevis, balki uni saqlash va rivojlantirish uchun mas'uliyatni anglashda yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. O'zbekiston. T.: 2021
2. Mahmudov F. O'zbek xalq rivoyatlari va ularning pedagogik ahamiyati. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2020.
3. Xo'jayev U. Yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni. Toshkent: Sharq nashriyoti. 2018.
4. Nazarov A. Xalq rivoyatlari va ularning o'quv jarayonida qo'llanilishi. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti. 2017.
5. Abdullaev A. O'zbek xalq adabiyoti va uning tarbiyaviy ahamiyati. Toshkent: TATU nashriyoti. 2021.